

TOP-300

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

(OTM rektori)

« 23 » 08 2025 yil

PAYPOQ MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI

FANINING O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi:** 700 000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
- Ta'lim sohasi:** 720 000 – Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
- Ta'lim yo'nalishi:** 60720700 -Yengil sanoat muhandisligi (trikotaj texnologiyasi)

Toshkent 2025

Fan/modul kodi PMT2706		Semestr 7	ECTS-kreditlar 6	
Fan/modul turi tanlov	Ta'lim tili O'zbek, rus		Haftadagi dars soatlari 4	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Paypoq mahsulotlari texnologiyasi	72	108	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni:</p> <p>Fanni o'qitishidan maqsad - talabalarga trikotaj tikuv mashinalarining tuzilishi, trikotaj mahsulotlarini tikish jarayoni va usullari, baxya hosil qilish jarayonlarini, baxya, baxya qator, choklar tuzilishi va shakllanishi, baxya xosil qilish a'zolarini, ignalar tasnifini, trikotaj tikuv mashinalarini tuzilishi va vazifalarini, asosiy va qo'shimcha ishchi a'zolarini, baxya, baxya qator va choklarni mahsulot sifatiga ta'sirini, baxya hosil qilish jarayonlarini har birining kamchiligi va afzalliklarini o'rgatishdir.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <p>nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar orqali bakalavr talabalariga trikotaj sanoatini rivojlanish tendensiyasini o'rgangan holda dunyo qarashni shakllantirish orqali inson xayotida trikotajni o'rni, trikotaj mahsulotlarini tikish mashinalarini ishlash prinsiplarini va axamiyatini ochib berish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p>1-mavzu. "Paypoq mahsulotlari texnologiyasi" fanining mazmuni, predmeti va metodi.</p> <p>"Paypoq mahsulotlari texnologiyasi" fani tikuv mashinalarini turlarini, baxya xillari, tikuv mashinalarida baxya xosil qilish jarayonlarini hamda baxyalarga ip sarflarini aniqlash masalalarini o'z ichiga oladi.</p> <p>2-mavzu. Trikotaj mahsulotlarini tikishda qo'llaniladigan asosiy tikuv mashinalari. Ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladigan zamonaviy tikuv mashinalari</p> <p>Trikotaj mahsulotlarini tikishda qo'llaniladigan asosiy tikuv mashinalari. Tikuv mashinalari haqida umumiy ma'lumotlar. Tikuv mashinalarining turlari.</p> <p>3-mavzu. Moki baxyalik tikuv mashinalari</p> <p>Moki baxyalik tikuv mashinalari. Tikuv mashinalarining asosiy va qo'shimcha ishchi a'zolari haqida ma'lumotlar. Tikuv mashinalarining klassi (sinfi) va asosiy ishchi a'zolari.</p>			

4-mavzu. Xalqa baxyali tikuv mashinalari

Xalqa baxyali tikuv mashinalari. Tikuv mashinalarining asosiy va qo'shimcha ishchi a'zolari haqida ma'lumotlar. Tikuv mashinalarining klassi (sinfi) va asosiy ishchi a'zolari.

5-mavzu. Yassi baxyali tikuv mashinalari

Yassi baxyali tikuv mashinalari. Tikuv mashinalarining asosiy va qo'shimcha ishchi a'zolari haqida ma'lumotlar. Tikuv mashinalarining klassi (sinfi) va asosiy ishchi a'zolari.

6-mavzu. Izma (petlya) ochuvch tikuv mashinalari

Izma (petlya) ochuvch tikuv mashinalari. Tikuv mashinalarining asosiy va qo'shimcha ishchi a'zolari haqida ma'lumotlar. Tikuv mashinalarining klassi (sinfi) va asosiy ishchi a'zolari.

7-mavzu. Tugma qadovchi tikuv mashinalari

Tugma qadovchi tikuv mashinalari. Tikuv mashinalarining asosiy va qo'shimcha ishchi a'zolari haqida ma'lumotlar. Tikuv mashinalarining klassi (sinfi) va asosiy ishchi a'zolari.

8-mavzu. Igna. Matoni suruvchi

Igna. Matoni suruvchi. Ip yurituvchi apparatlar qo'shimcha a'zolari. Ularini tuzilishlari va ishlash prinsiplari. Sozlash nuqtalari.

9-mavzu. Trikotaj buyumlarini tikishda qo'llaniladigan baxya qatorlar va choklarning turlari

Trikotaj buyumlarini tikishda qo'llaniladigan baxya qatorlar va choklarning turlari.

10-mavzu. Baxyalar to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar

Baxyalar to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar, baxyalarni sinflanishi, zanjirli bir ipli baxya va baxya qatorlar hamda zanjirli ikki ipli baxya qatorlar.

11-mavzu. Baxyalar to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar. Zamonaviy tikuv mashinalarida bazya qatorlarini dasturiy ta'minoti

Baxya va baxya qatorlari, yo'rmalovchi baxya va baxya qatorlar, mokili baxyalar va baxya qatorlari, baxyalar hosil etishda tikuv iplarni sarini aniqlash usullari.

12-mavzu. Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari (To'g'ri chokli)

Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari. Matoni igna bilan teshish jarayoni. Igna ipini mato orasidan o'tish jarayoni. Igna ipidan xalqa hosil qilish jarayoni.

13-mavzu. Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari (To'g'ri chokli)

Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari. Igna ipidan hosil bo'lgan xalqaga xalqa iluvchini kiritish jarayoni. Ignani ipidan xosil bo'lgan xalqani kengaytirish jarayoni.

14-mavzu. Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari (To'g'ri chokli)

Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari. Igna ipidan xosil bo'lgan xalqani moki atrofida aylanish jarayoni. Moki burunchasidan xalqani tushish jarayoni.

15-mavzu. Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari (To'g'ri chokli)

Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari. Xalqani mokidan chiqish jarayoni. Matoni surilish jarayoni. Baxya qatorini tortish jarayoni.

16-mavzu. Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari (Yassi chokli)

Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari. Matoni igna bilan teshish jarayoni. Igna ipini mato orasidan o'tish jarayoni. Igna ipidan xalqa hosil qilish jarayoni.

17-mavzu. Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari (Yassi chokli)

Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari. Igna ipidan hosil bo'lgan xalqaga xalqa iluvchini kiritish jarayoni. Ignani ipidan xosil bo'lgan xalqani kengaytirish jarayoni.

18-mavzu. Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari (Yassi chokli)

Tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlari. Igna ipidan xosil bo'lgan xalqani moki atrofida aylanish jarayoni. Moki burunchasidan xalqani tushish jarayoni.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar ko'zda tutilmagan:

IV. Laboratoriya ishlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya ishlari ko'zda tutilmagan.

- To'g'ri chokli tikuv mashinasining tuzilishi va ishlashi.
- Bahya, bahya qaratori va choklar
- Yo'rma qaviqlovchi tikuv mashinasining tuzilishi va ishlashi.
- Yassi chokli tikuv mashinasining tuzilishi va ishlashi.
- Tugma qadovchi yarim avtomat tikuv mashinasining tuzilishi va ishlashi.

- Izma (petlya) hosil qiluvchi yarim avtomatning tuzilishi va ishlashi

Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Trikotaj maxsulotlarini ishlab chiqarish korxonalaridagi tikuv mashinalarining tizimlarini o'rganish.

2. Zamonaviy tikuv mashinalar to'g'risida asosiy ma'lumotlarga ega bo'lish.

3. Zamonaviy tikuv mashinalarning kinematik sxemalariga qisqacha izox bera olish.

4. Zamonaviy tikuv mashinalarni ish unumdorliklarini bilish va ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish.

5. Baxyalar klassifikatsiyasi

6. Yassi baxyalar va baxya qatorlar

7. Qaviqlovchi baxyalar baxya qatorlar

8. Mokili baxyalar va baxya qatorlar

9. Ko'ndalangiga to'qilgan trikotajdan aralash usulda mahsulot tikish ketma-ketligi.

10. Erkaklar ustki kiyimini topshiriqqa asosan yozma taxlili va modelni izohlash.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. VI. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari:

Talaba bilishi kerak:

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- barcha to'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi, tikish texnologiyasiga oid asosiy tushunchalar, baxya, baxya qator, choklar tuzilishi, xususiyatlari, trikotaj tikuv mashinalarida baxya xosil qilish jarayonlari *haqida tasavvurga ega bo'lish;*

-tikuv mashinasini tuzilishi, tikuv mashina turlari, ularni ishlash

	<p>xususiyatlarini, tikuv mashinalarida maxsulot ishlab chiqarish usullarini, tikish jarayonida xom ashyodan samarali foydalanish yo'llarini bilishi va amalda raqobatbardosh trikotaj mahsulotlarini tikishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>;</p> <p>-trikotaj matolari tuzilishi, turlari, xususiyatlarini, texnologik o'lchamlarini, turli to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish usullarini, xom ashyodan samarali foydalanish yo'llarini bilishi va amalda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, texnologik jarayonlar omillarini tanlash va qo'llash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>;</p> <p>-baxya xosil qilish jarayonlari bo'yicha baxya turlarini, tikuv mashinalarini asosiy ishchi a'zolaridan tashqari qo'shimcha ishchi a'zolari, ularning vazifasi va ahamiyatini bilishi, ularni taqqoslab amaliy jihatdan tahlil etish tajribasiga ega bo'lishi, barcha to'qimachilik texnologiyalari majmuasida trikotaj ishlab chiqarish texnologiyalarining o'rni, ulushi, rivojlanish sur'atlari haqidagi ma'lumotlar bo'yicha etarli <i>malakalarga ega bo'lishi kerak</i>.</p>
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari; • interfoal keys-stadilar; • kichik guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • jamoa bo'lib ishlas; • vedio materiyallar tayyorlash; • individual ishlash.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to'liq o'zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikrlay olish, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, nazorat turlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. X.X.Samarxodjayev. "Tikuvchilik korxonalarini uskunalarini". O'quv qo'llanma. –T.: "O'zbekiston", 2001 y. 2. Sh.G.Madjidova, G.D.Ulkanboyeva. "Tikuv-trikotaj buyumlari texnologiyasi". –T.: Adabiyot uchqunlari, 2018y. <p>Qo'shimcha adabiyot</p> <ol style="list-style-type: none"> 3. Z.Tojiboyev, S.Toshpo'latov, M.Muqimov. "Tikuv-trikotaj korxonasi jihozlari" – T. "Iqtisod-moliya", 2012 y. 4. Франс В. Я. Оборудование швейного производства - М.: Издательский центр «Академия», 2002 г.

	<p>5. Ермаков А.С. Оборудование швейных предприятий - М.: Проф. Обр. Издат. 2002 г.</p> <p>6. Полухин.В.П., Милосердный Л.К. Конструктивно-унифицированный ряд швейных машин класса 31 с горизонтальной осью челнока. - М.: Легпромбитиздат, 1991 г.</p> <p>Axborat manbalari:</p> <p>7. www.edu.uz-Ta'lim portali.</p> <p>8. www.lex.uz-O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>9. www.gov.uz-O'zbekiston Respublikasi hukumati portali</p> <p>10. www.Juita.com</p> <p>11. www.Juki.com</p> <p>12. www.Yamata.com</p>
7.	Fanning o'quv dasturi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institut Kengashining 2025-yil " <u>27</u> " <u>08</u> dagi " <u>1</u> "-sonli bayonnomasi bilan maqullangan.
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>Yunusov K.Z. -TTYeSI, «To'qimachilik matolari texnologiyasi» kafedrasida dotsenti, t.f.n., dotsent.</p> <p>Mirusmanov B.F. -TTYeSI, «To'qimachilik matolari texnologiyasi» kafedrasida dotsenti, t.f.n., dotsent.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Fayzullayev Sh.R. –TTYeSI. “Ipak va yigirish texnologiyasi” kafedrasida, t.f.n., dosent</p> <p>Yunusova Z.G. – “Uzto'qimachilik sanoat” uyushmasi bosh mutaxassisi</p>

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

№	OTM nomi	QS	THE	Havolalar	Sillabusdagi mavzu nomi	Chet el universiteti Sillabuslaridagi mavzular
1	Gent Universiteti	168 (QS)	90 (ARWU) 112 (THE)	https://studiekiezer.ugent.be/2025/international-master-of-science-in-textile-engineering-en/programma	2-mavzu olingan 11-mavzu olingan	Ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladigan zamonaviy tikuv mashinalari Zamonaviy tikuv mashinalarida bazya qatorlarini dasturiy ta'minoti

[Handwritten signature]